

## **DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.**

*Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Xususan, korxonalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *davlat ishtirokidagi korxonalar, moliyaviy barqarorlik, investitsiyalar, boshqaruv, samaradorlik, raqobatbardoshlik, moliyaviy tahlil.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ishtirokidagi korxonalar (DIK) mamlakat iqtisodiyotining muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqaror faoliyati nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ushbu korxonalarning moliyaviy barqarorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularni har tomonlama o'rganish va yechimlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Bugungi globallashuv va tezkor iqtisodiy o'zgarishlar davrida davlat ishtirokidagi korxonalar (DIK) mamlakat iqtisodiyotining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Ushbu korxonalar energetika, transport, kommunal xizmatlar, metallurgiya kabi asosiy tarmoqlarda faoliyat yuritib, milliy iqtisodiyot barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ammo so'nggi yillarda ushbu korxonalarning moliyaviy samaradorligi va barqarorligi bilan bog'liq muammolar ko'zga tashlanmoqda. Shuning uchun, DIKlarning moliyaviy holatini mustahkamlash, ularning faoliyatini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat ishtirokidagi korxonalarning hozirgi holati



O'zbekiston Respublikasida 2024-yil holatiga ko'ra, yuzlab yirik va o'rta hajmdagi davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Afsuski, ularning ko'pchiligi moliyaviy jihatdan samarali ishlamayapti. Ayrim korxonalarda daromadlar xarajatlarni qoplay olmayapti, foyda o'rniga zarar ko'rilmoxda, bu esa davlat byudjetiga yuk tushiradi.

Jahon tajribasiga murojaat qilsak, rivojlangan davlatlarda bunday korxonalar mustaqil, korporativ boshqaruv asosida faoliyat yuritadi. Shunday bo'lsada, bizda ayrim DIKlar hali ham bozor mexanizmlariga to'liq moslashmagan, ular doimiy davlat yordamiga tayangan holda faoliyat olib bormoqda. Bu holat ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar

Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holatiga quyidagi omillar bevosita ta'sir qiladi:

##### Ichki omillar:

- Moliyaviy boshqaruvning sustligi – budjetning noto'g'ri rejalashtirilishi, xarajatlar ustidan yetarli nazoratning yo'qligi.
- Past operatsion samaradorlik – ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishlatalmasligi, mahsulot tannarxining yuqoriligi.
- Kadrlar va boshqaruv sifati – professionallik yetishmasligi, innovatsiyaga bo'lgan sust yondashuv.

##### Tashqi omillar:

- Bozor sharoitlarining o'zgaruvchanligi – talab va taklifdagi siljishlar, narxlarning keskin o'zgarishi.
- Davlat siyosati va tartibga soluvchi mexanizmlar – soliq yuki, subsidiyalar tizimi, litsenziyalash tartibi.
- Global iqtisodiy muhit – import-eksport cheklovleri, xalqaro raqobat, valyuta kursining o'zgarishi.

#### Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari

#### Boshqaruv tizimini takomillashtirish



DIKLarda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy qilish zarur. Masalan, kuzatuv kengashlari faoliyatini kuchaytirish, menejerlar faoliyatini samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash orqali korxona faoliyatiga mas'uliyatlari yondashuvni shakllantirish mumkin.

#### **Ichki moliyaviy nazoratni kuchaytirish**

Korxona byudjeti doimiy monitoring ostida bo'lishi kerak. Ichki audit xizmati faoliyatini mustahkamlash, risklarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish moliyaviy xatoliklarning oldini oladi.

#### **Innovatsiyalar va raqamlashtirish**

Zamonaviy axborot texnologiyalarini, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, samaradorlikni oshirish mumkin. Masalan, ERP tizimlari yordamida moliyaviy oqimlarni onlayn kuzatish imkoniyati yaratiladi.

#### **Xarajatlarni optimallashtirish**

Keraksiz xarajatlar qisqartirilib, asosiy faoliyatga yo'naltirilgan mablag'lar ko'paytirilishi kerak. Resurslardan samarali foydalanish, ortiqcha xodimlarni qisqartirish, logistikani soddalashtirish bu borada muhim vositalardir.

#### **Davlat qo'llab-quvvatlash siyosatini maqbullashtirish**

Davlat moliyaviy yordamini selektiv tarzda, faqat strategik va istiqbolli loyihalarga yo'naltirishi zarur. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik asosida DIKlar bazasida yangi loyihalarni amalga oshirish lozim.

#### **Investitsion jalb qilish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish**

Korxonalar faqat davlat mablag'lariga tayanmasdan, xalqaro moliya institutlari, tijorat banklari, investorlardan mablag' jalb qilishi kerak. Buning uchun ishonchli kredit reytinglari va biznes-rejalar ishlab chiqilishi muhim.

Davlat ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyot tayanchi bo'lishi uchun ular moliyaviy jihatdan mustahkam bo'lishi shart. Buning uchun korxonalarda samarali boshqaruv, moliyaviy intizom, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar joriy qilinishi lozim. Moliyaviy barqarorlikka erishishda davlat roli



muhim bo'lsa-da, korxonalar o'zini o'zi moliyalashtirishga intilishi zarur. Kelgusida ushbu korxonalarning xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishi uchun yuqorida sanab o'tilgan yo'naliishlarda keng ko'lamli islohotlarni amalgalash oshirish lozim.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, moliyaviy barqarorlik faqat davlat tomonidan moliyalashtirish bilan emas, balki ichki boshqaruvning isloh qilinishi, moliyaviy intizomning kuchaytirilishi orqali ham ta'minlanishi kerak. Bunda, ayniqsa, korxonalarni transformatsiya qilish, xususiy sektor bilan hamkorlik qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim rol o'yndaydi.

### **Xulosa**

Xulosa: Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy barqarorlashtirish bozor tamoyillariga asoslangan boshqaruv, investitsiyalarni jalb qilish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga bog'liq.

Korxonalarda moliyaviy menejmentni kuchaytirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda investitsiyalar jalb qilish.

Korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish.

Xarajatlarni kamaytirish va foydani optimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish.

Har yili moliyaviy barqarorlik monitoringi va baholash tizimini yo'lga qo'yish.

### **Adabiyotlar.**

1. Azrilian A. N., Economic and legal dictionary, 638 (Institute of the New Economy, Moscow, 2014)
2. Mukhambetov T. I., Nukushev A. G., Bankruptcy and anti-crisis management of the enterprise, 607 (Training allowance, Almaty, 2000)
3. Sheremet A. D., Sayfulin R. S., Methodology of financial analysis, 512 (Infra-M, Moscow, 2014)



4. Dzhumagalieva Zh. G., The Russian-English-Kazakh Dictionary of the Accountant and Auditor, 336 (IzdatMARKET, Almaty, 2006)
5. Mukhambetov T. I., Materials of the 2nd International Conference on Management, Leadership and Governance (ICMLG), 202-207 (2014)
6. R. S. Higgins, The financial analysis. Tools for making business decisions, 464 (WilliamsPublishingHouse, Moscow, 2008)
7. Osmonaliev A.O., Arzybaev A.A., Sapalov A.A., Tabirisova R.T., Accounting. Analysis. Audit, 4, 71-80 (2016)